

MEDIATSIYA YOKI NIZOLARNI SUDGACHA HAL QILISH INSTITUTINI O‘ZBEKISTONDA TARG‘IB ETISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Abdusamadov Dilmurod Farhod o‘g‘li –
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Mediatsiyada nizolashuvchi tomonlar o‘z ixtiyorlari bilan holis shaxs (mediator) ishtirokida nizoni hal etish maqsadida shartnoma tuzishadi. Shuningdek, mediatsiya sudlarda mavjud bo‘lgan ish hajmini kamaytirishda va shu orqali odil sudlovning sifatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya tartiboti tomonlarning ixtiyoriylik, maxfiylik, hamkorlik va teng huquqlilik, mediatorning xolislik va mustaqillik tamoyillari asosida tomonlar o‘zaro erkin xohish bildirishlarida o‘tkaziladi.

Shunday qilib, mediatsiyaning maqsadi nizo ishtirokchilarining o‘z kelishmovchiliklarini mustaqil hal qilish layoqatiga, o‘zaro talablarini qondirishga va har ikki taraf uchun baravar foydali bo‘lgan kelishuvga erishishlariga ko‘maklashishdan iboratdir. Mediatsiya jarayoni muzokaralardan iborat bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo‘lgan irodasi va intilishi, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog‘liq. Mediatsiyaga nisbatan jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj o‘tgan asrda yangi kasb – mediatorlikning shakllanishiga olib keldi. Mediatorlik bilan shug‘ullanuvchilar – mediatorlar taraflar o‘rtasida vujudga kelgan kelishmovchilik va nizolarni hal etishga ko‘maklashadilar. Bunda mediator dalillarni tekshirmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha, mediatorning asosiy vazifasi – taraflar o‘rtasida bir-birlarini tushunishga, ular uchun ma‘qul va maqbul shartlarda masalani hal etish imkoniyatlarini izlash va hal etishga ko‘maklashishdan iborat.

Ta‘kidlash joizki, vositachilik (mediatsiya) qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan hollar juda ko‘p. Masalan, quyidagi hollarda mediatsiyadan foydalanish ayni muddao bo‘ladi: o‘z munosabatlari, o‘z obro‘sini qadrllovchi, muzokara olib borish va hamkorlikni davom ettirishga tayyor insofli tadbirkorlik sub‘ektlari bitim bo‘yicha kontragent va nizo tarafi bo‘lsa; narigi taraf o‘z maqsadiga erishish yo‘lida har qanday shubhali vositalardan foydalanishga tayyor, deb hisoblash uchun jiddiy asoslar mavjud bo‘lmasa; mediatsiyani muayyan nizoni hal qilish uchun maqbul emas deb topish uchun boshqa jiddiy asoslar mavjud bo‘lmasa; yuridik pretsedentlarni yuzaga keltirish va kontragent kompaniyaga qarshi sud qarorlari chiqarilishiga erishish uchun jiddiy zaruriyat mavjud bo‘lmasa[1].

Xalqaro statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, yer yuzidagi huquq bilan hal qilinayotgan barcha nizolarning 35–40 % mediatsiya yo‘li bilan hal qilinadi va mediatsiya tartibida hal qilingan nizolarning taxminan 85% kutilgan ijobiy natijani bermoqda[2].

BMT ustavining 33-moddasida mediatsiya (vositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan[3]. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008 yil 21 maydagi YeI 2008 (52) direktivasi fuqarolik va tijorat sohasidagi mediatsiyaning ayrim jihatlariga taalluqli bo‘lib, mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Nizoning ikki yoki undan ortiq taraflari ular o‘rtasidagi nizoni hal qilish to‘g‘risida kelishuvga erishish maqsadida, mazkur jarayon taraflarning tashabbusi bilan uyushtirilganligidan, sud tomonidan taklif etilgan yoki tayinlanganligidan yoki milliy qonunchilikda ko‘rsatilganligidan qat’i nazar uchinchi tarafga yordam so‘rab murojaat etish jarayonidir”.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, mediatsiya fuqarolik-huquqiy nizolarni hal etishda juda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, anglo-sakson huquqiy tizimida yarashtiruv jarayonlari rivojlangan, shuningdek mediatsiya Yevropa davlatlarida keng tarqalgan. Oxirgi o‘n yillikda Yevropa hamjamiyati doirasida mediatsiyaga ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoyasini ta‘minlash imkoniyatlaridan biri sifatida murojaat etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2002 yil Yevropa komissiyasi tomonidan fuqarolik va tijorat huquqlari bo‘yicha nizolarni muqobil hal etish masalalari bo‘yicha Yashil kitob ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda mediatsiya AQSh, Yangi Zelandiya, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Avstriya, Germaniya kabi davlatlarda keng rivojlangan.

Mediatsiyani o'rganish bo'yicha xalqaro tadbirlarda uning samaradorligi bo'yicha bir qancha raqamlar keltiriladi. Masalan, AQShda mazkur protseduradan o'tgan ishlarning 95 foizi sud muhokamasigacha yetib bormagan. Germaniyada mediatsiyaning ko'rsatkichlari katta taassurot qoldiradi. 90%dan ko'proq muzokaralar taraflarning kelishuv bitimi bilan yakunlangan. Quyi Saksoniyada samaradorlik 97%ni tashkil etadi. Buyuk Britaniyada 90–95 foiz nizoli holatlar sud muhokamasigacha hal etiladi. Yevropada mediatsiyaning samaradorligi o'rtacha 40–80%ni tashkil etadi.

Mediatsiyadan foydalanishga monelik qiladigan omillar mavjud bo'lmagan hollarda tadbirkorlik sub'ektlari nizo bo'yicha yuridik nuqtai nazar kuchidan qat'i nazar, mediatsiyadan foydalanishga harakat qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odatda davlat sudlari nizolarni hal etishning muqobil usullarini rivojlantirishga har tomonlama ko'mak beradi, sababi ular davlat sudlaridagi ishlar sonini normallashtirishga shuningdek, odil sudlovni samarali amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishga imkon tug'diradi.

Bu kabi nizoni hal qilish samaradorligiga nizolashayotgan taraflarda kelajakka yo'naltirilgan maqsadli harakatlari hisobidan kooperatsiya va kommunikatsiyaga bo'lgan qobiliyatning ochilishi tufayli erishiladi, bu esa nizo taraflariga vaqtni, pulni va emotsional resurslarini tejashga yordam beradi.

Ma'lumki, sud tartibida ishlarni ko'rishda muayyan darajada moliyaviy xarajatlar, vaqt sarflanadi. Demak, nizoni sud orqali, shu jumladan kelishuv bitimini tuzish yo'li bilan hal qilish usulini mediatsiya mezonlari bilan taqqoslasak, "mediatsiya" nisbatan samaraliroq ekanligining guvohi bo'lamiz. Birinchidan, u sud jarayoni, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi va ijro ishi yuritishga qaraganda kamroq vaqtni oladi. Hatto yuridik tortishuvlar odatda bir necha da'vo arizalaridan tashkil topadi va ular ba'zan turli sudlarda ko'riladi. Bunda esa ijro varag'iga ko'ra erishadigan natijaga qaraganda samarali muzokaralar yordamida yaxshiroq natijaga erishish mumkin. Ikkinchidan, sud jarayoniga ko'rsatiladigan yuridik xizmatlar uchun haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar mediator gonoraridan ancha ko'p bo'ladi. Uchinchidan, sud jarayoni yakunlangach, sud zalini ba'zan murosasiz muxoliflar tark etsa, mediatsiya jarayonida sherikchilik munosabatlarini saqlashga muvaffaq bo'linadi, taraflar hamkorlikni davom ettiradi.

Nizolarni hal qilishning samarali usullaridan foydalanmoqchi bo'lgan yuridik yordam firmalari takliflar majmuiga mediatsiya jarayonlarini kiritsalar, mijozlarga juda noyob xizmat ko'rsatgan bo'ladilar. Shuni ta'kidlash lozimki, nizolarni hal qilishning samarali usullari firmalar daromadi sezilarli darajada ko'payishiga olib keladi, chunki ularning mijozlari soni ko'payadi. Yuridik yordam beradigan firmaning samaradorligi esa yutilgan sud jarayonlari soni bilan emas, balki mijoz uchun samarali hal qilingan nizolar soni bilan belgilanadi.

Yuridik firmalar nafaqat mijozlarni mediatsiyadan foydalanishga da'vat etishi, balki mediatsiyadan foydalanishda psixologik to'siqlarni bartaraf etish, nizolarni hal qilish siyosati qabul qilish va hokazolarda ularga yordam berishi ham mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Fransiyada sudga kelib tushgan da'vo arizalari dastavval majburiy tartibda kelishuv bo'limiga beriladi va mazkur nizo yopiq sud majlisida kelishuv asosida hal qilinadi. Kelishuv bo'limida ikkala tomondan saylangan vakillar ishtirok etib, ular o'z faoliyatlarini ishni kelishuv asosida tugatishga yo'naltiradi. Ushbu jarayonda erishilgan kelishuv bitimini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan usuli qo'llaniladi, ya'ni taraflarning kelishuv bitimi sud hal qiluv qarorlari kabi kuchga ega bo'lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, ushbu bosqichda ish bo'yicha guvohlar jalb etilmaydi hamda ishdagi mavjud dalillar sud tomonidan tekshirilmaydi va baholanmaydi. Ish yuzasidan kelishuvga erishilmagan taqdirdagina ish sudlov bo'limida mazmunan hal qilinadi.

Germaniyaning "Sud xarajatlari to'g'risida"gi Nizomiga ko'ra, agar taraflar birinchi instansiya sudida sud muzokaralariga qadar kelishuv bitimiga erishsalar, taraflardan sud xarajatlari undirilmaydi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining

141-moddasida taraflar o'rtasida sud hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar kelishuv bitimi tuzilgan bo'lsa, federal budjetdan da'vogarga uning tomonidan to'langan davlat bojining teng yarmi qaytarib berilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur normalar kelishuv bitimi orqali ish yuritishni tugatishni rag'batlantiruvchi muhim choralar hisoblanadi. Binobarin, sud muhokamasi boshlanmasidan avval nizolashuvchi taraflarni o'zaro manfaatli asosda murosaga keltirish orqali ishni tinch yo'l bilan hal etish jamiyatda yuz berishi mumkin

bo'lgan ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishda, ishlar tez va samarali hal etilishida, shuningdek, sud xarajatlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sudyalar ish yuklamasini kamaytirishda huquqni himoya qilishning suddan tashqari boshqa muqobil shakllarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Ular odil sudlovning o'rnini egallamaydi va shaxslarni sud orqali himoyalanih huquqidan mahrum etmaydi. Aksincha, shaxslarga nizolarni hal qilishning davlat va nodavlat shakllarini tanlash imkoni yaratiladi, taraflar yuzaga kelgan kelishmovchilikning ko'rishiga qarab qaysi taomil maqsadga muvofiq ekanini o'zlari hal qiladi.

Nizolarni muqobil hal etish usullari so'nggi yillarda respublikamizda, ayniqsa, iqtisodiy nizolarni kamchiqim va qisqa vaqt ichida murosa yo'li bilan hal etish usuli sifatida tobora hayotimizga kirib kelayotganligi hech kimga sir emas. Buni "Hakamlar sudlari to'g'risida"gi Qonun misolida ham ko'rish mumkin. Hozirgi kunda fuqarolik-huquqiy nizolarni muqobil hal etishning muhim shakllari sifatida muzokaralar (uchinchi shaxslarning ishtirokisiz tomonlar kelishmovchiliklarni o'zaro hal etishlari), mediatsiya (taraflarni o'zaro kelishtirishga ko'maklashuvchi mustaqil, xolis vositachi yordamida nizoni hal etish), hakamlar sudi (nizoni mustaqil, xolis shaxs – hakam (yoki hakamlar) yordamida hal etish) e'tirof etiladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Amerikaning 1000dan ortiq korporatsiyalari o'rtasida olib borilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ulardan 88 foizi oxirgi uch yil davomida mediatsiyani qo'llab kelgan, 81 foizi mediatsiyani sud tartib-taomiliga qaraganda qulay ekanligini qayd etgan, 59 foizi nizoda ishtirok etuvchilar o'rtasida sheriklik aloqalarini saqlab qolish imkoni yaratilganligini ta'kidlagan.

Masalan, Belgiyada sud taraflarga kelishmovchilikni muqobil hal etish mexanizmi yordamida bartaraf etishni taklif qilishi shartligi, Ispaniya va Italiyada esa sudya taraflarni yarashuv tartib-taomiliga murojaat qilishga qaratilgan barcha choralarni ko'rishga majbur ekanligi belgilangan. Gresiya qonunchiligi bo'yicha ham agar taraflar nizoni o'zaro hal etish bo'yicha yarashtiruv tartib-taomilini qo'llamagan bo'lsalar, sud da'voni qabul qilmaydi[4].

Hozirgi kunda sudlarda da'vo tartibida yuritiladigan ishlar sonining ko'pligi va ularni hal etish birmuncha murakkab ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, nizoni taraflar o'rtasida kelishuv bitimi tuzish orqali yakunlash masalalariga alohida e'tibor berish talab etiladi. Xususan, ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida taraflarni yarashtirish choralarni ko'rishni nazarda tutuvchi maxsus tartib-taomillarni belgilash, mazkur bosqichda taraflar o'rtasida kelishuv bitimi tuzilishi uchun rag'batlantiruvchi normalarni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shokirov A. Mediatsiya nima? Manba: <http://hmadad.uz/uzbcyr/info/article160.html>
2. Жошева А.А. Медиатсия как способ досудебного урегулирования споров.
3. <http://www.sudkazybekby.kz/ru/mediatsiya-kak-sposob-dosudebnogo-uregulirovaniya-sporov.html>
4. Устав Организации Объединенных Наций // www.un.org/ru/documents/charter/
5. Mamasiddiqov M. Nizolarni sudga qadar hal etish sudlardagi mavjud ish
6. yuklamalarining kamayishiga xizmat qiladi. <http://huquqburch.uz/uz/article/2391/>